

O‘ZBEKISTON YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQI BILAN AMALIY HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH TARAFDORIDIR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 21-dekabr kuni Sankt-Peterburg shahrida Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining navbatdagi yig‘ilishida kuzatuvchi davlat rahbari maqomida ishtirok etdi.



Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko raisligida o‘tgan uchrashuvda Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin ham qatnashdilar. YOII kuzatuvchi davlatlari rahbarlari — Kuba Respublikasi Prezidenti Migel Dias-Kanel va Eron Islom Respublikasi Prezidenti Mas‘ud Pezeshkiyon ishtirokchilarga videomurojaat yo‘lladilar. Taklif qilingan davlat vakili sifatida tadbirda Indoneziya Respublikasi savdo vaziri Budi Santoso ishtirok etdi.

Kun tartibidan ko‘p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, transportni rivojlantirish va o‘zaro hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarida qo‘shma dasturlarni amalga oshirish masalalari o‘rin oldi.

O‘zbekiston Prezidenti nutqining avvalida YOII mamlakatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ta’kidladi.

Keyingi to‘rt yilda kuzatuvchi davlat maqomidagi hamkorlik davrida O‘zbekistonning ittifoq mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi qariyb ikki baravarga oshdi va 20 milliard dollarga yaqinlashdi.

Savdo, sanoat, moliya tizimi, qishloq xo‘jaligi, transport va boshqa sohalarida 40 ga yaqin chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan 2026-yilgacha hamkorlik rejasini tashkil etishda amalga oshirilmoqda.

Kelgusi yilda qo‘shma Ishchi guruhning beshinchi yig‘ilishini Toshkentda o‘tkazish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston savdo va yuk tashishni raqamlashtirish, elektron tijoratni joriy etish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish sohalarida YOIIning bir qator tarmoq dasturlarida faol ishtirok etmoqda.

Oliy Yevroosiyo iqtisodiy kengashining bu galgi yig‘ilishi doirasida O‘zbekiston va YOII o‘rtasida bo‘jxona chegaralari orqali o‘tkazilayotgan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risidagi ma‘lumotni almashish to‘g‘risida bitim tuzish yuzasidan muzokaralarni boshlash qarori qabul qilindi.

— Ishonchimiz komil, chegaralararo ma‘lumotlar almashinuvi bo‘jxona nazorati samaradorligini oshirishga, kechikishlarni

kamaytirishga va transport tizimlarimizni Yevroosiyo yo‘laklariga integratsiya qilishga xizmat qiladi, — deya ta’kidladi davlatimiz rahbari.

O‘zbekiston Prezidenti Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Xususan, davlatimiz rahbari o‘zaro tovar ayirboshlashda savdo to‘siqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish muhimligini ta’kidladi. Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya standartlariga yondashuvlarni uyg‘unlashtirish uchun MDH va YOII institutlari faoliyatini muvofiqlashtirishni kuchaytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shu ma’noda, O‘zbekiston yetakchisi ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish va talablarni birxillalashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish taklifi bildirildi.

Texnik jihatdan tartibga solish, sertifikatlashtirish va bo‘jxona ma‘murchiligidagi tafovutlar bilan bog‘liq masalalarni tezkor hal etish uchun tarif va notarif to‘siqlar bo‘yicha “O‘zbekiston — YOII” qo‘shma Muvofiqlashtiruvchi guruhini tashkil etish taklifi ilgari surildi.

Sanoat sohasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida mamlakatimiz

rahbari mashinasozlik, energetika, agrosanoat majmui, kimyo va boshqa sohalaridagi loyihalar ro‘yxatini birgalikda tuzishni taklif qildi.

O‘zbekistonning Yevroosiyo taraqqiyot bankiga qo‘shilishi munosabati bilan hamkorlikning strategik yo‘nalishlarini birgalikda belgilash hamda ustuvor infratuzilmaviy va “yashil” loyihalarni, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashni qamrab olgan “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish tashabbusi bildirildi.

Raqamli texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish haqida gapirar ekan, O‘zbekiston Prezidenti bo‘jxona ma‘murchiligi raqamlashtirish va yuk tashishda “uzluksiz” modelga o‘tish masalalari ustuvor vazifa ekanligini qayd etdi.

— Raqamli platformalarni, jumladan, elektron savdo va raqamli markirovkani uyg‘unlashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni YOIK bilan birgalikda tayyorlashni taklif etamiz, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

O‘zbekiston YOIIning, eng avvalo, biotib-biyot, yangi materiallar, agrotexnologiyalar, energetika va robototexnika yo‘nalishlaridagi texnologik platformalariga qo‘shilishdan manfaatdor.

Turizm almashinuvi rag‘batlantirish va turistik mahsulotlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash maqsadida davlatimiz rahbari O‘zbekiston turizm sohasida integratsiyalashgan axborot resursini shakllantirish ishlariga qo‘shilishga ham tayyorligini bildirdi.

Yakunda davlatimiz rahbari O‘zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan keng qamrovli va o‘zaro manfaatli sheriklikni kengaytirishga qat’iy intilishini yana bir bor tasdiqladi.

Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrif doirasida N.A.Rimskiy-Korsakov nomidagi Sankt-Peterburg davlat konservatoriyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonga Lev Tolstoy nomidagi Xalqaro tinchlik mukofotini topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin huzurida xalqaro mukofotini uning hay’ati raisi, Mariinskiy teatri badiiy rahbari va bosh direktori, Rossiya Katta teatri bosh direktori, dirijyor Valeriy Gergiyev topshirdi.

Uch mamlakat yetakchilari ushbu nufuzli mukofotga Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga qo‘shgan ulkan shaxsiy hissasi uchun sazovor bo‘ldilar.

Hakamlar hay’atining qarorida ta’kidlanganidek, 2025-yil 31-mart kuni Xo‘jand shahrida uchta davlat rahbarlari Davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi to‘g‘risidagi shartnoma va Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi Xo‘jand deklaratsiyasini imzoladilar va shu bilan xalqaro huquq ustuvorligiga asoslangan umumiy va barobar xavfsizlikni ta’minlash, xalqlar o‘rtasida o‘zaro anglashuv hamda hamkorlikni mustahkamlashga katta hissa qo‘shdilar.

Ushbu mukofot insonparvarlik g‘oyalari sadoqatini ifodalashi va Markaziy Osiyoni tinchlik, farovonlik hamda bunyodkorlik makoniga aylantirish yo‘lidagi umumiy hissaning e’tirofi ekanini ta’kidladi. Birodar O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasidagi munosabatlarda yangi sahifa ochilishi uch mamlakat xalqlarining siyosiy irodasi, o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikka intilishi tufayli bo‘lgani qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi davom etmoqda.

O‘ZA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING OLIY YEVROOSIYO IQTISODIY KENGASHI YIG‘ILISHIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Avvalambor, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti hurmatli Vladimir Vladimirovich Putinga mehmondo‘stlik va bugungi uchrashuvimizni a’lo darajada tashkil etgani uchun bildirilgan minnatdorlik so‘zlariga qo‘shilaman.

Belarus tomonining, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Grigoryevich Lukashenkoning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga samarali raisligini alohida qayd etmoqchiman. Bu davrda ko‘p tomonlama amaliy hamkorlik yangi sur‘at kasb etdi.

Global bozorlarning tobora parchalanib borayotgani, logistika zanjirlarining murakkablashayotgani va investitsiya resurslarini taqsimlashda ustuvor yo‘nalishlarning o‘zgarayotgani sharoitida biz uchun strategik va tabiiy sheriklarimiz bo‘lgan Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlari bilan pragmatik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirish prinsipial ahamiyat kasb etmoqda.

Hurmatli yig‘ilish ishtirokchilari!

Kuzatuvchi davlat maqomidagi hamkorlikning so‘nggi to‘rt yilida O‘zbekistonning YOII mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi qariyb ikki barobar oshdi.

Iqtisodiy aloqalar tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ulushi ortib borayotgani, kooperatsiya loyihalari kengayib borayotgani barqaror sur‘at ko‘rsatayotgani ayniqsa muhimdir.

Bu hamkorlarimiz ishlab chiqarish zanjirlarini mustahkamlashdan chinakam manfaatdorligini aks ettiradi.

O‘zbekiston Yevroosiyoing asosiy formatlarida faol ishtirok etmoqda.

Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi bilan savdo, sanoat, moliya, agrar sanoat va transport sohalarida 40 ga yaqin aniq tadbirlarni o‘z ichiga olgan uch yillik reja amalga oshirilmoqda.

Qo‘shma Ishchi guruh formatidagi ishlar davom etmoqda: uning beshinchi yig‘ilishini kelgusi yilda Toshkent shahrida o‘tkazishni rejalashtirmoqdamiz.

Shuningdek, YOIIning elektron savdoni rivojlantirish, yuk tashishni raqamlashtirish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha tarmoq dasturlarida ishtirok etmoqdamiz.

O‘zbekiston va YOII bo‘jxona chegaralari orqali olib o‘tiladigan tovarlar va transport vositalari to‘g‘risida axborot almashish borasida bitim tuzish bo‘yicha muzokaralarni boshlash haqidagi qaror qabul qilinganini olqishlaymiz. Ishonchimiz komilki, transchegaraviy ma‘lumotlar almashinuvi bo‘jxona nazorati samaradorligini oshirish, kechikishlarni kamaytirish va transport tizimlarimizning Yevroosiyo yo‘laklariga integratsiyalashga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning Yevroosiyo taraqqiyot bankiga qo‘shilishi hamkorlikni mustahkamlashda muhim bosqich bo‘ldi. Bank bilan birgalikda infratuzilma, energetika, metallurgiya, kimyo va boshqa tarmoqlarda istiqbolli loyihalar portfelini shakllantirildi.

Hurmatli hamkasblar!

YOII bilan hamkorlikni kengaytirish borasidagi ustuvor yo‘nalishlarimizni qisqacha aytib o‘tmoqchiman.

Birinchi. Savdo to‘siqlarini bosqichma-bosqich bartaraf etish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya me‘yorlari borasidagi yondashuvlarni yaqinlashtirish maqsadida MDH va EOII institutlari o‘rtasidagi muvofiqlashtirishni faollashtirish zarur deb hisoblaymiz.

Ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish va talablarni birxillalashtirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Texnik jihatdan tartibga solish, sertifikatlash va bo‘jxona ma‘muriyatchiligidagi tafovutlar bilan bog‘liq masalalarni tezkor hal etish maqsadida tarif va notarif to‘siqlar bo‘yicha “O‘zbekiston — EOII” qo‘shma Muvofiqlashtiruvchi guruhini tuzishni taklif etamiz.

Ikkinchi. Sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Mashinasozlik, energetika, agrosanoat majmui, kimyo va boshqa tarmoqlardagi loyihalar ro‘yxatini birgalikda shakllantirish zarur.

O‘zbekistonning ETTBga qo‘shilishi munosabati bilan sheriklikning strategik yo‘nalishlarini birgalikda belgilab olish hamda ustuvor infratuzilmaviy va “yashil” loyihalarini, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashni qamrab olgan “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ishonchimiz komilki, Bank nafaqat moliyalashtirish manbai, balki integratsiya loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish katalizatoriga aylanishi mumkin.

Uchinchi. Raqamli texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish niyatidamiz.

Raqamli platformalarni, jumladan, elektron tijorat va raqamli markirovkalashni o‘zaro bog‘lash bo‘yicha YOIK bilan “yo‘l xaritasi”ni tayyorlashni taklif etamiz.

Bo‘jxona ma‘muriyatchiligini raqamlashtirish va yuk tashishning “choksiz” modeliga o‘tishni ham ustuvor vazifa sifatida ko‘r-yapmiz.

To‘rtinchi. Biz YEIIning biotibbiyot,

yangi materiallar, agrotexnologiyalar, energetika va robototexnika kabi yo‘nalishlarni qamrab oluvchi texnologik platformalariga qo‘shilishdan manfaatdormiz.

Beshinchi. Turizm sohasida integratsiyalashgan axborot resursini shakllantirishga ham qo‘shilishga tayyormiz.

Bunday yondashuv mamlakatlarimiz turistik mahsulotlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash imkonini beradi.

Hurmatli do‘stlar!

O‘zbekiston EOII bilan amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish tarafdoridir.

Fursatdan foydalanib, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti hurmatli Qosim-Jomart Kemelevich Toqayevga Birlashmaga raislik Qozog‘istonga o‘tishi munosabati bilan muvaffaqiyatlar tilayman.

Barchangizni va birodar xalqlarimizni kirib kelayotgan Yangi yil bilan yana bir bor samimiy tabriklab, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik va ravnaq tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

Farhod NE'MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



ISHONCH va RAG‘BATni IMKONIYATga AYLANTIRAYOTGAN ZAMONDOSHLAR — BUGUNGI KUN QAHRAMONLARI

Mamlakatimizda barcha sohalarida kechayotgan shiddatli islohotlar doirasida kambag‘allikni qisqartirish, ehtiyojmand oilalar bilan ishlash va ularning turmush darajasini yaxshilash borasida ham izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Yillar davomida yurtimizda kambag‘allik masalasi deyarli tilga olinmagan, mavzu yopiq bo‘lgan. Keyingi yillarga kelibgina, bu masala ochiq muhokamalarga olib chiqildi va uni bartaraf etish bo‘yicha tub islohotlar boshlandi. Ushbu toifadagi oilalarni kambag‘allikdan chiqarish, barqaror daromad manbaiga ega qilish, kasbga o‘rgatish, tadbirkorlikka yo‘naltirish va manzilli ko‘makni yo‘lga qo‘yish kabi ishlar “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturiga asosan amalga oshirilmoqda.

Joriy yil 19-noyabr kuni Prezidentimiz raisligida kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlar

sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ham kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishidagi ishlar chuqur tahlil qilindi va kechiktirib bo‘lmaydigan yangi vazifalar belgilandi. Aslida, kambag‘allik va ishsizlik faqat qiyinchalangan oilalarning emas, balki jamiyatimizda yashayotgan barchaning umumiy tashvishidir.

Ushbu maqola qahramonlari ham yangi O‘zbekistonda kechayotgan islohotlar samarasi tufayli hayot qiyinchiliklarini yengib, nafaqat kambag‘allikdan chiqish, balki el-yurtga nafi tegayotgan tadbirkorlarga aylangan zamondoshlarimizdir.

ENDI HAM YERLI, HAM UYLI MAN



Komila JO‘RAYEVA
Jizzax viloyati Zarbdor tumani:

— Yillar mobaynida 7 farzandim bilan boshpanasiz, tashlandiq joyda chayla qurib yashadik. Ba‘zan yeyishga non topolmay, propiskam yo‘qligi uchun farzandlarimni maktabda o‘qita olmay, juda tushkun kayfiyatda yurgan vaqtlarimda kun kelib, meni “Gulchi opa” deb atashlarini xayolimga ham keltirmagandim. Chunki 6 yil oldin “Temir daftar”da ro‘yxatda turar, ahvolim nochor edi.

Bugungi kunda Zarbdor tumanidagi “Zarbdor zirapchasi gul ko‘chatlarini yetishtirish tomorqa xizmati” MCHJ direktoriman, 35 nafar doimiy ishchim bor. O‘tgan yili “Yil ayoli” tanlovi respublika bosqichida ishtirok etib, “Yilning eng jonkuyar ayoli” nominatsiyasida g‘olib bo‘ldim. Joriy yil avgustida esa Prezidentimiz farmoni bilan “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoniga munosib ko‘rildim.

Hozirgi yashab turgan joyimiz, tomorqa xo‘jaligimiz ilgari tashlandiq, taqir yer edi. Aynan shu yerga kelib, kichik bir kapa tikib yashaganmiz. Turmushdagi qiyinchiliklar, tushunmovchilik va aldovlar tufayli farzandlarim bilan uysiz, ko‘chada qolganmiz. Holiq qanday kechyapti, bolalarining nima yeb, nima ichaypti, kiyishga kiyimi, yotarga joyi bormi, nega ayol boshing bilan ko‘chada yashayapsan, qishning izg‘irini, yozning jazirasida bu yerda qanday jon saqlaysizlar deb so‘raydigan odam bo‘lmagan.

Beadd shukrki, so‘nggi yillarda yurtimizda kechayotgan yangilanishlar bois, ro‘shnolik ko‘rdim. Hech kutmaganim holda hayotimda yaxshi o‘zgarishlar ro‘y berdi. Buning uchun Prezidentimizdan cheksiz minnatdorman!

Olti yil oldin o‘sha vaqtdagi tuman hokimi kelib yashash tarzimni ko‘rdi, “Nega bunday ahvolda yashab yuribsiz, farzandlaringiz maktabda o‘qimayotgan ekan, nima uchun

mahallaga yoki bizga murojaat qilmadingiz, mahalla faollari ahvolingizni so‘ramadimi?” degan savollarni berdi.

Indamadim. Zero, yillar davomida yordam so‘rab men taqillatib bormagan idora eshigi, ko‘maklashing, ahvolim og‘ir deya aytmagan mutasaddi rahbar qolmagandi. Shuning uchunmi, o‘sha paytlarda hech kimdan ko‘mak so‘ramaganman. Hokimning “Sizga nima yordam qilaylik?” degan so‘roviga, “Menga yer bering, mehnat qilib, o‘zim oyoqqa turaman”, dedim. Shundan so‘ng yer ajratib berildi.

Davlatimiz ko‘magi bilan issiqxona quridik, bolalarim bilan asta-sekin issiqxonalarni ko‘paytirdik. Tumanda gulchilik yo‘nalishida doimiy faoliyat yurituvchi birotta tadbirkor yo‘qligi bois, bu sohaga ehtiyoj bor edi. Yaqinda quduq qazdirib, suv chiqardik. Ungacha ekinlarni chelaklab suv tashib sug‘orardim. Vaqt o‘tib, yon-atrofni obod qilib, mevali ko‘chatlar ekdim. Davlatimizning yana bir moddiy qo‘llari bilan ikki xonali uy uchun boshlang‘ich to‘lov qildim.

Aslida, turmush qiyinchiliklaridan ortib 7 farzandni tarbiyalash, voyaga yetkazishning o‘zi bo‘lmaydi. Hayotim asta-sekin izga tushdi, qiyinchiliklar ortda qoldi. Hozir mutasaddi rahbarlar faoliyatimni doim qo‘llab, ko‘mak berib kelyapti. Kadastr qilish, issiqxonani gazlashtirish orqali faoliyatim ancha rivojlandi. Bugun yangi O‘zbekistonimizda yangilanishlar nafari esyapti. Insonparvar, taraqqiyparvar islohotlar hisobiga men kabi uysiz, ishsiz, boshpanasiz odamlar hayotida olamshumul yaxshi o‘zgarishlar ro‘y bermoqda.

Aytgancha, korxonamiz 2022-yilda faoliyat boshlagan bo‘lsa, 2025-yil boshida 100 million so‘m kredit evaziga yana 5 gektar yer olib, manzarali gul ko‘chatlari yetishtirishni boshladik. Hozir gullarning 500 xildan ziyodini yetishtiryapman. Issiqxonalarni kengaytirib, gulchilikdan tashqari turli mevali daraxtlar yetishtirish va ichki bozorda sotish, ko‘kat va rezavorlarning urug‘ini qadoqlab, savdo qilishni yo‘lga qo‘ydim. Bundan tashqari, parrandachilik va chorvachilikni ham izga tushiryapman.

Ishsiz xotin-qizlarga tomorqachilik sirlarini o‘rgatish orqali doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishida ko‘mak berish bilan birga ularning ma‘naviy olamini boyitish uchun “Zirapcha” nomli kutubxona tashkil qildim.

To‘g‘risi, davlatimiz yaratib berayotgan imkoniyatlar orqali 40 yoshimda kambag‘allikdan chiqib, tadbirkor ayolga aylandim. Asosiysi, farzandlarim olti ta‘lim muassasalarida, kichiklari maktabda o‘qiyapti. Davlatimiz g‘amxo‘rligi va qo‘llab-quvvatloviga javoban ehtiyojmand oilalar, qiynalgan ayollarga ko‘mak berishga harakat qilyapman.

Shohista NURMAMATOVA
Buxoro viloyati Qorako‘l tumani:

— Turmush o‘rtog‘im va bir bolam nogiron. Shu bois, ro‘zg‘orning kam-ko‘stini to‘ldirishga harakat qilardim. Ayniqsa, birinchi guruh nogironi bo‘lgan o‘rancha farzandimning parvarishi, dorilari va kundalik ehtiyojini ta‘minlash eng og‘ir sinovlardan biri edi. Voyaga yetmagan uch bolaning kundalik xarajatlari ham bunga qo‘shilib, uzoq yillar tinkamni quritdi.

Yaxshiyam orzu bor. Bu kunlar kelishini yillar bo‘yi kutib, niyat qilib yashadim. Yo‘qsa, bilmadim, turmushning bu og‘ir sinovlariga qanday bardosh berardim? Har holda hayotim qachondir o‘nglanishini bilardim.

Shukrki, o‘ylaganlarim, yaxshi niyatlarim ro‘yobga chiqmoqda. Davlatimiz xalqimizni, yurtidoshlarimiz davlatimizni qo‘llashi ortidan



mamlakatimiz tez rivojlanayapti. Ya‘ni bugun barchaga tadbirkorlik, ish, o‘qish, sport uchun yaxshi sharoit yaratib berilyaptiki, undan unumli foydalanayotganlarning yutug‘i yig‘ilib, O‘zbekistonimizni har tomonlama

yuksaltirmoqda. Asosiysi, “Inson qadri uchun” g‘oyasiga asoslangan ustuvor islohotlar tufayli biz kabi ehtiyojmand qatlam vakillari ham o‘zini baxtli his qilmoqda.

2022-yilda “Temir daftar”ga kiritildim. 2023-yilda “Mahalla yetiligi” yordami bilan oilaviy tadbirkorlikni boshlash uchun 33 million so‘m imtiyozli kredit oldim. Ishni tovuq boqish hamda tuxum sotishdan boshladim. Bu ishning xarajati kam, asosiy ishlar esa uyda bajariladi. Shu bois, ham ishlash, ham farzandlarim va turmush o‘rtog‘imga g‘amxo‘rlilik qilishga vaqtim ko‘proq bo‘ladi.

Mehnatda baraka bor deyishadi. 300 ta tovuq‘im bor edi, hozir ularning soni ikki mingtaga yetdi. Har kuni qariyb 1000 dona tuxum olaman. Xaridorlar tuxumini uyimdan olib ketadi.

2024-yil kuzida yana 100 million so‘m kredit olib, ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirdim.



Narzullo ZABIXULLAYEV
Toshkent viloyati Zangiota tumani:



Endi parrandachilik asosiy daromad manbaimizga aylandi.

“Turmush qiyinchiliklari meni ba‘zan butunlay yolg‘iz qoldirgandek tuyular, hayotda qanday yo‘l topaman, farzandlarimni qanday qilib oyoqqa turg‘izaman degan o‘ylar bilan tunlari bedor o‘tirardim. Shukrki, davlatimizning yordami, e‘tibori orqali hayotim izga tushdi, umidim qayta tiklandi.

Hayotimdagi bu katta o‘zgarishlar uchun davlatimizdan bir umr minnatdorman. Prezidentimizning g‘amxo‘rligi tufayli qaytadan qadim tiklanib, jamiyatda o‘z o‘rnini topdim.

kasallik bilan og‘riganman”, dedim. U meni malakali shifokorlarga olib borishini aytdi.

Bir necha kundan so‘ng shifoxonaga bordik, qayta tekshiruvlardan o‘tdik. Xullas, sog‘lig‘im tiklana boshladi.

Oz fursat o‘tmay, oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida xonadonimizda bichuvchilik xizmati bilan shug‘ullanishga bankdan 33 million so‘m imtiyozli kredit oldim. Dastlab ishimni yakka tadbirkor sifatida boshlagan bo‘lsam, hozir 20 ishchi-xizmatchi bilan davom ettiryapman. Ularning bir qismi kambag‘al oilalar a‘zolari.

Kichik tadbirkorligim bugun tibbiyot kiyimlari tikish va bichuvchilikka ixtisoslashgan oilaviy korxonaga aylandi. Hozir 27 yoshdaman, oylik daromadim 80 milliondan ziyod.

Bundan tashqari, olti sotixli tomorqamizda shamshod o‘simligini yetishtirishni yo‘lga qo‘ydim. Donasini 65 mingdan sotamiz, olti oyda 800 dona shamshod yetishtiriladi. Daromadimiz hisobiga xonadonimizni ta‘mirladik, turmush sharoitimizni yaxshiladik, avtomobil ham oldik. Quvonarlisi, singlim va ukamni turli to‘garaklarda o‘qityapman.

Albatta, hayotimdagi bu o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan bo‘lmadi. Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi islohotlar barcha jabhadagi yangilanishlar, katta-katta yutuqlar, biz kabi millionlab insonlar taqdiri yaxshi tomonga o‘zgarishiga asos bo‘lyapti. Buning uchun Prezidentimizdan cheksiz minnatdorman!

DAVLATIMIZ QO‘LLAB-QUVVATLOVI BILAN SHU DARAJAGA ERISHDIM

Feruza OCHILOVA

Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumani:

— Yo‘qchilik qursin, qora qozonni qaynatishdan boshqa tashvish xayolimga kelmaydigan paytda farzandlaring biror tansiq taom pishirib yoki yangi kiyim olib berishingni so‘rasa, g‘alati holga tushib qolarikansan. So‘raganini qilyay desang imkonning yo‘q, vaziyatni aytib kuyisang, ular bola, tushunmasligi mumkin, boshqa tomondan, ular bu narsalarni so‘rashga haqli. Shunday kezlari javobi yo‘q savollarimdan ma‘yus tortardim.

Bunday tushkunlik ruhiyatga ham ta‘sir qilarkan. So‘nggi yillardagi o‘zgarishlar tufayli oilaviy sharoitimizni o‘rganib chiqib, “Ayollar daftar”iga ro‘yxatga qo‘yishganida aytarli o‘zgarish bo‘lishiga ishonmagandim. Mahalla faollari bankdan kredit olishimni tavsiya qildi, ijtimoiy daftarda turganim uchun imtiyoz asosida 30 million so‘m oldik.

Shu asosda tomorqamizda ikki sotixli kichik issiqxona barpo etib, dehqonchilikni yo‘lga qo‘ydim. Bu kurtanimizdan tezroq natija berganini ko‘rib juda ruhlandik. Hozirga kelib, qo‘shimcha daromadimiz hisobidan issiqxonani olti sotixgacha kengaytirdik. Yil davomida uch marta hosil yetishtiramiz. Asosan, pomidor va bodringdan barqaror daromad oloyapmiz. Yana chorvachilikni ham yo‘lga qo‘ydim.

Daromadimiz yaxshi, shuning hisobidan uy-joyimizni ta‘mirladik, qoramollarni



ko‘paytirdik. Farzandlarimizni oliy ta‘limda o‘qitishni niyat qilganmiz. Davlatimiz qo‘llab-quvvatlovini bilan shu darajaga yetishdim. Fikrimcha, bu yo‘nalishdagi siyosat evaziga O‘zbekistonda menga o‘xshab muhtojlikdan farovonlikka chiqqanlar, tadbirkor bo‘lib el-yurt manfaatini yo‘lida xizmat qilayotganlar juda ko‘p. Shuning uchun mamlakatimiz juda tez sur‘atlarda rivojlanayapti.

Demochimanki, davlatimiz mana shunday sharoit yaratib bergan ekan, biz bu ishonch, rag‘bat fursatini imkoniyatga aylantirib, ham oilamiz, ham yurtimiz barqarorligi yo‘lida bor kuch-g‘ayratimizni ishga solishimiz talab etiladi. Shaxsan o‘zim bu talabni sharaf bilan bajaraman.

Bugun “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi natijasida xalqimiz turmush tarzida yangi imkoniyatlar, yangi sahifalar ochilmoqda. Keng qamrovli islohotlar har bir hududda o‘zining aniq natijasini bermoqda.

Qaysi hududga bormang, tomorqadan unumli foydalanish, issiqxona xo‘jaliklari, gulchilik va kichik biznesning turli yo‘nalishlarini rivojlantirayotgan fidoyilarga duch kelasiz. Ular nafaqat o‘z oilalariga mustahkam tayanch, balki mahalla hayotiga yangi ruh va harakat bag‘ishlayotgan yangi davr ishbilamonlaridir.

Ulardan bir guruhining hayoti bilan tanishar ekanmiz, imkoniyatlardan unumli foydalanish asosida kambag‘allikdan chiqib, munosib hayot darajasiga erishganining guvohi bo‘lamiz. Ularning har biri iroda, mehnat va intilish bilan ro‘zg‘origa baraka, hayotiga esa go‘zal maqsadlar kirita olgan.

Ha, insonning farovon, to‘kin va xotirjam hayot kechirishi, avvalo, uning o‘zidagi iroda va halol mehnatiga bog‘liq. Xonadonida tinchlik, mehnatida baraka bo‘lishini istagan har bir inson bugungi islohotlardan unumli foydalangan holda o‘z sa‘y-harakatlari bilan to‘kin va to‘kis hayotga erishishi mumkin.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Har bir mamlakat rivojlanish jarayonida kambag‘allikni qisqartirish bosqichidan o‘tadi. Yurtimizda ham aholining muayyan qismi kambag‘al ekanini tan olindi va ularga yordam berishga kirishildi. O‘tgan qisqa muddatda bu bo‘yicha yangi tizim yaratilib, ko‘plab yutuqlarga erishildi. Xususan, ishsizlik darajasi 4,9 foizga tushdi. Mazkur raqam o‘tgan yili 5,5 foiz bo‘lgan.

“TOMORQA MAKTABI” —

ILM VA IQTISODIYOT UYG‘UNLIGI



Surxondaryo viloyatida ham kambag‘allikni qisqartirish, aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli ishlar samara beryapti. Jumladan, shu yilning 9 oyida 23 ming 300 oila kambag‘allikdan chiqarildi. Natijada kambag‘allik darajasi yil boshidagi 9,3 foizdan 5,5 foizga kamaydi.

Prezidentimiz raisligida shu yil 19-noyabr kuni kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta‘minlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda qishloq xo‘jaligi hisobidan aholi daromadini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan va tegishli vazifalar belgilab berilgan edi.

Kambag‘allikni qisqartirish maqsadida aholiga 232 ming gektar yer bo‘lib berilgan. Natijada 770 ming odam daromad manbaiga ega bo‘ldi. Lekin tajribasi yetishmagan, sifati urug‘, mahsulotiga bozor topishga qiynalgani uchun ularning uchdan biri kam daromad topgan. Shu bois, Termiz tumanida tomorqa maktabi tashkil qilindi. Maqsad — tomorqa egalarga serhosil urug‘ tanlash, ishini to‘g‘ri tashkil etish sirlarini o‘rgatish. Bu maktabda tomorqaga ilm bilan yondashib, bir yilda Surxondaryo sharoitida 5 martagacha ekin ekish o‘rgatilyapti.

Ehtiyojmand 3000 kishi sitrus meva, anjir, xurmo, gul yetishtirish bo‘yicha maxsus kurslarda o‘qitiladi. Agar bu tajriba barcha hududda joriy qilinsa, mahsulot yetishtirish ham, eksport ham, asosiysi, dehqonlarning daromadi ham 4-5 barobar ko‘payadi.

Surxondaryodagi “Innovatsion tomorqa maktabi” asoschisi — 64 yoshli tajribali dehqon Boboyor Xolboyev. U yillar davomida 33 sotix issiqxonada 1 million tup pomidor, bodring, bulg‘or qalampir, baqlajon, qovun, tarvuz, 20 turdagi gul ko‘chatini parvarishlab, fermer va dehqon xo‘jaliklariga yetkazib bermoqda. Bugun issiqxonada 20 dan ortiq mahalladoshini doimiy ish bilan ta‘minlagan. Ularning o‘n nafari xotin-qizlar. U xonadonida maktab ochdi va mahalladoshlariga qishin-yozin mahsulot yetishtirishning sir-asrorlarini qunt bilan o‘rgatmoqda.

— Qaysi soha bo‘lmasin, yuqori natijaga erishish uchun, albatta, eskicha usullardan voz kechish, ilmiy yondashuvni joriy etish kerak. Tomorqa maktabining yutug‘i mahsulot yetishtirishda innovatsion usullardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yilganida, — deydi “Do‘stlik” ordeni sohibi Boboyor Xolboyev. —

Xususan, “Leto” kompaniyasi tashkil etgan eksport uchun yuqori daromadli ekinlar yetishtirish va logistika markazi faoliyati bilan tanishdik, — deydi Namangan viloyati Mingbuloq tumani “Oybek” MFYdagi hokim yordamchisi Saïda Boytumanova.

Endi har bir viloyatda kamida 5 ta tomorqa maktabi ochiladi. Shu orqali yerni ijaraga olganlar serdaromad ekin ekishga o‘rgatiladi. Dehqonlar ijaraga olingan yerda yetishtirgan mahsulotni kafolatli sotishi uchun eksportchi kooperativlari tashkil qilinadi. Ushbu seminar barcha hududdan kelgan vakillarga foydali tavsiyalar olish va mahorat almashish imkoniyatini berdi.

— Surxondaryo viloyatida 2026-yilda kambag‘allikni 4,5 foizdan kamaytirish maqsad qilingan. Bu borada 5 ta ustuvor yo‘nalish belgilab olingan. Ulardan biri — sanoat loyihalari orqali doimiy ish o‘rinlari ochish. Birgina Qiziriq tumanida 7,5 milliard so‘m evaziga zovur yopiq drenajga o‘tkazildi. Natijada sex uchun qulay joy paydo bo‘ldi.



Maktabimizda yerga ilmiy asosda yondashib, bir yilda voha sharoitida 5-marta ekin ekish o‘rgatilyapti. Masalan, oktyabrda ertapishar karam, fevralda kartoshka, mayda bodring, avgustda ko‘kat, sentyabrda esa sarimsoq ekib, yuqori natijaga erishish mumkin. Tashabbus va intilish bo‘lsa, 10 sotix tomorqadan yiliga 100 million so‘mdan daromad olsa bo‘ladi.

Usta dehqonlarning uzoq yillik tajribasi, to‘plagan bilimlarini o‘rtolashayotgani samara bermoqda. Kimdir qulupnaya qiziqsa, yana kimdir gulchilik agrotehnologiyasini o‘rganmoqda. Boshqa birov esa karam yetishtirish sir-asrorlarini o‘zlashtirmoqchi. Faqat bular bilan cheklanmagan dehqonlar endi mahalliy iqlim sharoitida banan, papayya kabi sitrus mevalarni ham parvarishlayapti.

Yaqinda Termiz tumanidagi “Innovatsion tomorqa maktabi”da tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda keng qamrovli seminar tashkil etildi. Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda barcha viloyatdan tuman hokimlari, ularning qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosarlari, mahalla raislari, hokim yordamchilari, tajribali usta-dehqonlar va o‘z hududida qishloq xo‘jaligi bo‘yicha loyihalarni yo‘lga qo‘yish istagidagi tadbirkorlar qatnashdi.

— Ishitirokchi sifatida maktab hududida tashkil etilgan o‘quv amaliyot uchastkasida bo‘ldik. Bu yerda qo‘llanayotgan innovatsion sug‘orish tizimi, o‘simliklarni parvarishlashning ilmiy asoslangan usullari va hisildorlikni oshirishga qaratilgan yondashuvlariga guvoh bo‘ldik. Nafaqat tomorqa maktabi faoliyati, balki eksport masalasida ham tushunchaga ega bo‘ldik.

“**Qiziriq tumanida 31 ta mahalla bor. Tumanida yil boshida kambag‘allik darajasi 8,5 foiz edi. Bajarilgan ishlar natijasida bu ko‘rsatkich ancha pasaydi. Tashkil etilayotgan bunday savdo va ishlab chiqarish maydonlari aholi bandligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etyapti. Shu bois, foydalanilmayotgan 5 gektar yerda qator loyihalarni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan. Mazkur sa‘y-harakatlar aholining turmush sharoitini yaxshilash, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.**

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

KANAL VA ARIQLARNI BETONLASH SUVNI TEJAB, HOSILGA BARAKA KIRITYAPTI

Quvasoy shahridagi “Zamin ko‘rki” fermer xo‘jaligi ekin maydonlariga suv Qaqir arig‘i bo‘ylab ikki kilometr uzoqdan keladi. O‘zan hududdagi 230 gektar ekin maydonini suv bilan ta‘minlashi kerak. Bu ekinlar vegetatsiyasi davrida o‘ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. O‘z vaqtida tozalaniib, kovlanmagan ariqlarni begona o‘t bosib, suv oqimini susaytiradi. Me‘yorida ortiq suv ariq qirg‘oqlarini buzib, obihayotning behuda oqib ketishiga sabab bo‘ladi. Bir kilometr ichki ariqning betonlanishi fermerning suv ta‘minotini keskin yaxshiladi. Natijada bir yilda 350 ming kub suv tejaldi.

— Qaqir arig‘idan 12 gektardan ortiq ekin maydonini sug‘oramiz, — deydi fermer Avazbek Mamajonov. — Ariqlar beton qilingach, sug‘orish vaqti tejalyapti, oqim tezlashdi, yo‘qotishlarning oldi olindi, ekinlarni sifati sug‘orish imkoniyati yaratildi. Iqtisod qilingan obihayot qo‘shimcha ekinlar ekish orqali daromad olish, yangi ish o‘rinlari yaratishda qo‘l kelmoqda. Ayni kunlarda 6 gektardan ortiq intensiv bog‘imizda tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish ustida ishlayapmiz.

Quvasoy shahri qishloq xo‘jaligi tarmoqlari uchun kerakli bo‘lgan suv manbalari asosini Qirg‘izistondan oqib keluvchi Isfayram daryosi tashkil etadi. Keyingi yillarda sug‘orish tarmoqlarini yaxshilash, mavjud suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida hududdagi kanal va ariqlarni betonlash ustuvor vazifa sifatida ko‘rilmog‘da.

2025-2026-yillarga mo‘ljallangan reja doirasida jami 7,3 kilometr sug‘orish tarmog‘ini betonlash reja qilingan. Bu mavjud ekin maydonlarini barqaror sug‘orish imkoniyatini kengaytirib, bosim bir maromda saqlanadi va uzoq masofaga qiyinchiliksiz yetkaziladi. Ariqlarni muntazam tozalashga ehtiyoj kamayadi. Chunki beton qoplama ifloslanish va ortiqcha o‘t-o‘lanlar rivojini cheklaydi. Bu jarayon, ayniqsa, yoz mavsumida har bir tomchi suv qadrlri bo‘lgan sharoitda katta ahamiyatga ega.

Farg‘ona vodiysi suv resurslarini boshqarish “Faza-2” loyihasi doirasida Quvasoy shahrida 4,6 kilometr tuproq o‘zanli kanalni betonlash ishlari yakunlandi. Natijada 520 gektar sug‘oriladigan maydonning suv ta‘minoti yaxshilandi. Bu yiliga o‘rtacha hisobda 1,1 million metr kub suvni tejash imkoniyatini beradi.

Joriy yilda klaster, fermer va dehqon xo‘jaliklari ixtiyorida 56 kilometr ichki ariqni betonlash bo‘yicha manzilli dastur ishlab chiqildi. Bu bir mavsumning o‘zida 10-12 million metr kub suvni tejash, ekinlarni tezroq sug‘orishga yo‘l ochadi.

Eski Nayman kanali Quvasoydagi fermer va tomorqa xo‘jaliklariga suv yetkazib berishda muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Bugungacha bu o‘zaning 5 kilometr qismi betonlandi. Muhofaza zonolari mustahkamlandi. Eski Nayman kanali “Lashkar”, “Pastki valik”, “Yuqori valik”, “Nayman” mahalla fuqarolar yig‘inidagi ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlaydi. Suv o‘zani beton qilingach, obihayot yetkazib berish hajmi keskin oshdi. Bir yilda 2 million kubdan ziyod yo‘qotishlarning oldi olindi. Bu 400 gektardan ortiq ekin maydonini qo‘shimcha suv bilan ta‘minlash hamda 100 gektar yangi yer o‘zlashtirish imkoniyatini beradi.

Farg‘ona viloyatida 2025-2026-yilning kuz-qish davrida Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi, “Suv yetkazib berish xizmati” DM tasarrufidagi sug‘orish tarmoqlarini betonlash reja qilingan. Unga ko‘ra,

280 kilometr joy beton qilinishi kerak. Hozirgacha 87,4 kilometrdagi ishlar bajarildi.

— Sohaga raqamli texnologiyalarni joriy qilish borasidagi istiqbolli loyihalar suv resurslarini tejash, undan samarali foydalanish ko‘lamini oshirishga xizmat qilmoqda,

— deydi Sirdaryo-So‘x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Humoyun Xolmatov. — O‘tgan yilning o‘zida viloyat mahalliy byudjeti hamda boshqa mablag‘lar hisobidan 711 ta “Aqlli suv” hamda 132 ta “Dayver” qurilmasi o‘rnatildi, 1 ta suv xo‘jaligi obyekti avtomatlashtirildi. Ayni kunda yana 586 ta “Aqlli suv” qurilmalari o‘rnatish bo‘yicha pudratchi tashkilotlar bilan shartnomalar imzolaniib, qurilish ishlari bajarilmoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida onlayn rejimda suv sarfi va sathi, mineralashganlik ko‘rsatkichlari monitoringini yuritish orqali yerning meliorativ holatini baholash aniqligi 20 foiz oshirildi.

Joriy mavsumda Isfayram-Shohimardon irrigatsiya tizimi boshqarmasi balansidagi bitta yirik gidrotexnikinshootavtomatlashtirilishi hisobiga suvning texnik yo‘qotilishi 10 foizgacha kamaydi.

Kanal va inshootlarni rekonstruksiya qilish, ta‘mirlash orqali mavjud suv resurslaridan tejab-tergab foydalanishga qaratilgan xorijiy investitsiya miqdori ham ortib bormog‘da. O‘tgan yilning o‘zida bu maqsadlar uchun 7 million dollar miqdoridagi sarmoya o‘zlashtirildi. Buning hisobiga 7 kilometr kanal beton qilindi. Olti kilometr suv o‘zanlarida ta‘mirlash-tiklash ishlari bajarildi. Ayni kunda yangi Avval-Lovg‘on nasos stansiyasini qurish, Isfayram-Shohimardon nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish borasida tizimli ishlar davom etyapti.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Bugungi kunda hududlarda “mahalla yetiligi” tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish borasida ham faollik ko‘rsatyapti. Fuqarolarga imtiyozli kredit, subsidiyalar va yer maydonlari ajratishda ko‘mak beryapti.

“Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi hayotga tatbiq etilgan ilk kunlarda Navoiy viloyatida 13 mingta kambag‘al oila bor edi. Kambag‘allik darajasi esa 6 foizni tashkil etgan. O‘tgan davrda 7 ming oila kambag‘allikdan chiqarildi. Bu jarayonda, asosan, “mahalla yetiligi” faoliyatiga tayanilmog‘da.

Mahallamizda 8 mingdan ziyod aholi bor. Ularning aksariyati ko‘p qavatli uylarda istiqomat qiladi, — deydi Navoiy shahridagi Taraqqiyot mahallasi raisi Zarina Rajabova. — Mahallamizni qisqa vaqtda to‘liq kambag‘allikdan xoli hududga aylantirishni reja qilganimiz. Aholi turmush tarzi uchun barcha infratuzilma yaratilgan. Yo‘llarimiz ravon. Keksalarimiz duogo‘y, yoshlarimiz faol, tadbirkorlarimiz tashabbuskor. Har bir fuqaro “Mening mahallam — mening uyim” g‘oyasi bilan yashamoqda. Ana shunday ahillik tufayli “Obod mahalla, obod ko‘cha, obod xonadon”



“YETTILIK” SAMARASI: HAR XONADONDA DAROMAD, HAR KO‘CHADA HARAKAT

ko‘rik-tanlovining shahar va viloyat bosqichida g‘olib bo‘ldik. “Mahalla yetiligi” fuqarolar bilan doimiy muloqotda va ularga yaqin ko‘makdosh bo‘lib ishlayapti.

Xonadonbay ishlash tizimi aholining ijtimoiy ahvolini o‘rganish va masalalarini ijobiy



hal etishda samara bermoqda. “Yettilik” tarkibidagi hokim yordamchilariga aholini tadbirkorlikka o‘rgatish, ishsiz fuqarolar bandligini ta‘minlab, kambag‘allikni qisqartirish vazifasi yuklatilgan. Taraqqiyot mahallasining asosiy drayveri savdo va xizmat ko‘rsatishdir.

Joriy yilda ushbu mahalladagi hokim yordamchisi tashabbusi bilan yangi loyihalar amalga oshdi. Masalan, Ramazon Jalilov ko‘p qavatli uy yerto‘lasida tajriba sifatida qo‘ziqorin yetishtira boshladi. Ushbu yangi yo‘nalish hozir yaxshi daromad manbaiga aylangan.

— Aholini tadbirkorlikka jalb qilish uchun 2025-yilning o‘n oyida 42 ta loyiha uchun kredit va 10 fuqaroga subsidiya ajratildi, — deydi Taraqqiyot mahallasidagi hokim yordamchisi Farhod Aliqulov. — Shuningdek, 26 ta mikroloyiha ishga tushirilib, 87 ta yangi ish o‘rni yaratildi. 22 xotin-qizga 756 million so‘m imtiyozli kredit ajratildi. Yoshlar balans asosida 954 yoshning bandligi va ijtimoiy holatiga ko‘ra “Individual ishlash tizimi” shakllantirildi. Umuman, 2025-yilning o‘zida mahallamizda xizmat ko‘rsatish va savdo yo‘nalishlari bo‘yicha 70 ga yaqin yangi tadbirkorlik subyekti tashkil qilindi. Xonadonma-xonadon yurib, aholining imkoniyati o‘rganilib, tadbirkorlik qilishiga ko‘mak berilyapti.

Mahallaning yana bir tadbirkori Maftuna Hakimova uy jihozlari ishlab chiqarmoqda. U 20 dan ortiq kishining bandligini ta‘minlagan. Ushbu mahallada yashovchi Latofat Husanova esa milliy qo‘g‘irchoq ustasi sifatida tanilgan. Avvaliga xonadondan boshlangan kichik loyiha bugun keng quloq yozmoqda.

— Faoliyatimni boshlaganimda tadbirkorlik uchun hozirgidek imkoniyat ham, sharoit ham yo‘q edi, — deydi hunarmand Latofat

Husanova. — Hozir esa tadbirkor bo‘laman degan insonga imkoniyat katta. Ayni vaqtda mahallamizdan boshqa hududlarda ham milliy qo‘g‘irchoqlar yasash ustaxonalari tashkil etganimiz. Har bir filialimizda 5-6 kishi ish bilan band. Shuningdek, Navoiy shahridagi kasbiy ko‘nikmalar va tadbirkorlik markazlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yganimiz. Hunar o‘rganish istagidagi xotin-qizlarni bepul o‘qitamiz. Bundan tashqari, nogironligi bo‘lgan va bola parvarishida band ayollar bilan kasanachilik asosida ishlayapmiz.

Taraqqiyot mahallasida yashovchi Diyora Qosimova yaqinlasha tikuvchilik qilari, sanoqligina buyurtma bajarib, ro‘zg‘or tebratardi. U “mahalla yetiligi” tavsiyasi va ko‘magi bilan yangi loyihaga qo‘l urdi. Ko‘p qavatli uy yerto‘lasida ayollar va erkaklar uchun paypoq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona ochdi. Hozir imtiyozli kredit asosida xarid qilingan zamonaviy texnologiya yordamida sifati paypoqlar ishlab chiqarmoqda.

So‘nggi yilda hududda jinoyatchilik darajasi sezilarli kamaydi. Bu profilaktika inspektori va mahalla faollarining hamkorligi samarasidir. Mahallada “xavf guruhi”ga kiruvchi shaxslar bilan muntazam individual suhbat va oilaviy maslahatlar o‘tkazib boriladi. Natijada mahalla jinoyatchilikdan xoli hududga aylandi.


G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ilgari robot yordamida bajariladigan jarrohlik amaliyoti haqida eshitganimizda fantastik qurilma ko‘z oldimizga keldirdi. Endi esa bu yangilik bo‘lmay qoldi. Robot texnologiyalar bugun yurtimiz tibbiyotiga ham jadal kirib kelmoqda. Robot tizimlar jarrohlarga tananing eng nozik joylarida ham yuqori aniqlikda harakat qilish imkonini beradi. Shifokorning qo‘li titramaydi, robot har bir harakatning silliqligi va aniqligini ta‘minlaydi. An‘anaviy amaliyotlardan farqli o‘laroq, operatsiya jarayonida katta kesmalarga hojat qolmaydi. Tanadagi kichik kesmalar orqali bemorda amaliyot o‘tkaziladi. Kam invaziv usuldan so‘ng bemor operatsiyadan keyin qattiq og‘riqni his qilmaydi. Chandiqlar katta bo‘lmaydi va organizm tezroq tiklanadi.

Robot jarrohlikdan foydalanish to‘g‘risidagi qaror kasallik turiga va bemorning umumiy sog‘lig‘iga bog‘liq. Bu usul odatda murakkabroq va yetib borish qiyin bo‘lgan joylarda operatsiyaga ehtiyoj sezilganda qo‘llaniladi. Misol uchun, yurak va o‘pka xastaliklari, oshqozonni shuntlash, urologiya, ginekologiya, onkologiya va boshqa kasalliklarda foydalanish mumkin.

Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida shifokorlarga yaqin ko‘makchi bo‘lgan “REVO-I” rusumli noyob robot-xirurg Janubiy Koreyaning “Meere” kompaniyasida ishlab chiqarilgan bo‘lib, uning imkoniyatlari juda keng. Mazkur qurilma yordamida bajariladigan amaliyotlar bemor hayoti uchun muhim bo‘lgan boshqa a‘zolarga ta‘sir qilmasligi, minimal qon yo‘qotish bilan kechishi va operatsiyadan keyingi reabilitatsiya jarayoni qisqa ekan bilan ahamiyatli.

O‘tgan yilning o‘zida Turkiyadagi klinikalarga O‘zbekistondan ko‘plab fuqaro murojaat qilgan, — deydi tibbiyot fanlari doktori Muhamedzarif Bahodirxonov. — AQSH, Germaniya, Janubiy Koreya, Hindistonga yo‘l olayotgan bemorlar soni ham salmoqli. Natijada asoratli kam jarrohlik amaliyotlari uchun katta mablag‘ sarflanadi. Ana shu kam invaziv, murakkab jarrohlik amaliyotlari yurtimizda ham robotlar yordamida muvaffaqiyatli bajarilmoqda. Shu kungacha robot ko‘magida 500 dan ortiq operatsiya qilingani va natijalar ijobiyligi mamlakatimiz tibbiyoti jahon standartlariga yaqinlashayotganidan dalolatdir.



TIBBIYOTDA ROBOT TEKNOLOGIYALAR


YORDAMIDA MURAKKAB AMALIYOTLAR MUVAFFAQIYATLI BAJARILMOQDA

Jarrohlik amaliyotida robot assistentning afzalliklari ko‘p. Masalan, operatsiya yuqori aniqlikda bajariladi. Jarayon xavfsizligi ta‘minlanadi. Shifokorda inson tanasining murakkab qismlari hamda kasallikning og‘ir darajalarida ham erkin ishlash imkoni paydo bo‘ladi. Albatta, yuqori malakali, tajribali xirurg nazoratida, robot ko‘magida bajarilgan amaliyotdan so‘ng bemor tezda oyoqqa turadi. Asorat sezilmaydi. Shifokorning esa operatsiya paytida xato qilish ehtimoli kam bo‘ladi. Chunki robot barcha buyruqlarni mukammal bajaradi.

— Xorijda o‘tkaziladigan urologik operatsiyalarga 50 ming dollargacha sarflanishi mumkin, — deydi Muhamedzarif Bahodirxonov. — Mamlakatimizda robot ko‘magida o‘tkaziladigan operatsiyaga 15-20 karra kam mablag‘ sarflanadi. Aminmanki, yurtimizda bu soha jadal rivojlanadi va eng murakkab kasalliklarni davolashda yuqori natijaga erishiladi.

Yaqinda Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida O‘zbekistonda birinchi marta robot-assistent yordamida yuqori texnologiyali operatsiya qilindi. Markaziy nerv tizimi kasalliklarini davolashda yangi imkoniyatlarni ochib bergan ushbu amaliyot muvaffaqiyatli yakunlandi.

— Joriy yilning birinchi yarmida jami 1,2 mingga yaqin operatsiya o‘tkazildi, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan neyroxirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori



G‘ayrat Kariyev. — Shundan qariyb 770 tasi yuqori texnologik jarrohlik amaliyotidir. Shunday noyob amaliyotlardan biri ilk bor 6 oylik chaqaloqda bajarildi. Jajji bemor ikki oyliyidan boshlab doimiy tutqanoq xurujidan aziyat chekib kelgan. Bu hol takrorlanavergach, so‘nggi paytlarda hushini yo‘qotgan. Tibbiy amaliyotda o‘ta murakkab va xavfli operatsiya

muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Tutqanoq xurujlari to‘xtadi. Chaqaloq sog‘lom hayotga qaytdi. Ta‘kidlanishicha, robot-assistent imkoniyatlari yuksak aniqlik talab qiladigan amaliyotlarni, xususan, parkinson kasalligida miyaning chuqur tuzilmalariga maxsus elektrolarni aniq joylashtirish kabi murakkab operatsiyalarni ham bajarish imkonini beradi.

Jarrohlik amaliyotida robot assistentning afzalliklari ko‘p. Masalan, operatsiya yuqori aniqlikda bajariladi. Jarayon xavfsizligi ta‘minlanadi. Shifokorda inson tanasining murakkab qismlari hamda kasallikning og‘ir darajalarida ham erkin ishlash imkoni paydo bo‘ladi. Albatta, yuqori malakali, tajribali xirurg nazoratida, robot ko‘magida bajarilgan amaliyotdan so‘ng bemor tezda oyoqqa turadi. Asorat sezilmaydi. Shifokorning esa operatsiya paytida xato qilish ehtimoli kam bo‘ladi. Chunki robot barcha buyruqlarni mukammal bajaradi.

Robot-assistentni amaliyotga joriy etish milliy neyroxirurgiya rivojida muhim qadam bo‘lib, aholiga zamonaviy va yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtiradi.

— Albatta, robot o‘zi mustaqil operatsiya qilmaydi, u shifokorga assistent, yordamchi hisoblanadi, — deydi neyroxirurg shifokor Xurshidbek Shavkatbekov. — U operatsiya jarayonida navigatsiya yordamida miyaning

YURTGA QAYTGAN JARROH YURAKLARGA MADOR BO‘LYAPTI

Inson qadri uchun

Muborak tumanning eng chekka hududlaridan biri bo‘lgan Chori yetim qishlog‘iga bir borgan kishi yana mehmon bo‘lgisi keladi. Odamlari sodda, samimiy va mehnatkash. Ular bekorchilikni yoqtirmaydi. Shu bois, qishloqda har burchakda to‘planib, gap sotib o‘tirganlarni uchratmaysiz. Qo‘lidan ish keladigan kishi borki, dehqonchilik, chorvachilik bilan mashg‘ul. Muhimi, topganini to‘y-hashamga sarflashni yomon ko‘radi. Imkon topildi deguncha, farzandlarini ilm olishiga undaydi. Yoshlari ham ilgma chanqoq, intiluvchan. Qo‘lida kitob, doim qaysidir tanlovlarda ishtirok etish niyatida yuradi.

Aholisi uncha ko‘p bo‘lmagani uchun qishloqning yagona maktabi ham katta emas. Lekin shu mo‘jazzgina ta‘lim maskanida ilm olishga o‘quvchilar mamlakatimizning turli hududida, hatto xorijdagi nufuzli universitetlarda tahsil olgan. Yetakchi mutaxassis sifatida ishlamoqda. Qahramonimiz ham aynan shu qishloq farzandi.

...Adham qo‘y-qo‘zi boqib yurgan bolalik kezaridayuq tibbiyotga mehr qo‘ydi. Shifokor bo‘lish uchun nima qilish zarur degan savolni har kuni o‘qituvchilarga bergisi kelar, lekin imyanib, indamay to‘ya qolardi. Baribir puxta bilim kerak degan fikrda barcha fanlardan a‘lo baho olishga intilardi. Uning shifokorlikka qiziqishining yana bir sababi shaharda yashaydigan amakisining ham shu soha vakili ekanida edi. Ko‘pincha mehmonga borganida amakisi jarrohlik yo‘li bilan qancha bemorni davolaganida haqida gapirib berar, bu hikoyalari Adhamni hayajonga solardi. Gohida inson a‘zolarini qay yo‘li bilan qo‘rqmay ochib, amaliyot o‘tash mumkinligi haqida o‘ylardi. Ba‘zida amakisi bo‘rttirib hikoya qilayotgandek tuyulardi. U ko‘p savollariga javob olishni istay, ammo o‘sha tortinchilik sabab jar‘at yetmasdi.

Kunlarning birida dadasi bilan qo‘shni qishloqqa to‘yga bordi. Bir dasturxon atrofida ularga o‘sha paytda malakali shifokorlardan

biri hamroh bo‘ldi. Adham uning jarrohlik ekanini bilgach, o‘zini qiziqtirgan savollarini berdi. Mehmon ham yigitchaning shifokorlikka qiziqishi yuqori ekanini darhol sezd. Barcha savollarga javob berishga harakat qildi. Shifokor bo‘lish uchun nimalarga e‘tibor berish, qaysi fanlarni chuqur o‘zlashtirish zarurligi haqida erinmay gapirib berdi.

Savollariga javob olgan Adham endi yagona maqsad sari olg‘a qadam tashladi. Maktabdan keyin kimyo, biologiya, ona tili fanlarini ko‘proq o‘qiydigan bo‘ldi. Bundan tashqari, ingliz tilini ham mustaqil o‘rgana boshladi. U tanlagan yo‘l oson emasdi. Ya‘ni yurak jarrohi bo‘lish istagi yuqori edi. Bu murakkab kasbni egallash har kimning qo‘lidan kelmasligi unga ma‘lum bo‘lsa-da, maqsadi sari qat‘iy intila boshladi.

Maktabni tamomlagach, 2003-yili Toshkent davlat tibbiyot institutiga hujjat topshirdi. Puxta tayyorgarlik samara berib, Adham test sinovidan muvaffaqiyatli o‘tib, yuqori ball bilan talabalikka tavsiya etildi. Institudda uch yil o‘qigach, 4-kursdan o‘qishini Moskva davlat tibbiyot akademiyasida davom ettirdi. Akademiya imkoniyatidan unumli foydalandi. Oliygo‘hni tamomlab, umumiy jarrohlik bo‘yicha yana bir yil o‘qidi. Shundan so‘ng akademiya davlat ikki yil ordinatura bo‘yicha tahsil oldi. Shu jarayonda Rossiyaning Bakulev nomidagi yurak-qon tomir xirurgiyasi ilmiy markazida ishlab, tajriba oshirdi. Qator malakali akademiklarga shogird tushdi. Ularning kardiolarrohlik amaliyotida shogird sifatida ishtirok etdi. Adhamning sohaga muhabbati, o‘z ustida tinimsiz ishlashi ustozlar e‘tiborini tortdi. Shu sabab sohaning yetuk mutaxassislari unga hamisha kerakli maslahatlar berar, bu kasbda xato qilish aslo mumkin emasligini uqtirdi. Adham Jalilov esa hech ikkilanishsiz jarrohlr qatorida bo‘lishga intilardi. Aynan bu sa‘y-harakatlar tufayli tajribali yurak jarrohiga aylandi...

Keksa avlod vakillarining aytishicha, 1970-yillarda viloyatlar orasida birinchilardan bo‘lib Qashqadaryoda ilk bor kardiologiya markazi bunyod etilgan. Shundan so‘ng shifo maskaniga yetakchi mutaxassislar jalb etilib, aynan yurak-qon tomir kasalliklari bilan og‘rigan bemorlarni davolash yo‘lga qo‘yilgan.

Bu esa nafaqat voha, balki qo‘shni viloyatlar aholisi uchun ham katta qulaylik bo‘lgan. Natijada odamlar vaqt yo‘qotib poytaxtga bormagan, balki shu yerning o‘zida davolana boshlagan.

— Ilgari yurak-qon tomir kasalliklarining murakkab jarrohlik ishi birovta viloyatda bajarilmagan, — deydi Adham Jalilov. — Bugun shunday imkoniyat aksariyat viloyatlarda mavjud. Bu, albatta, Prezidentimizning “Inson qadri uchun” tamoyili asosida yuritayotgan siyosati samarasi. Tibbiyotdagi islohotlar tufayli soha xalqqa yaqinlashdi. Odamlarning uzog‘i yaqin, og‘iri yengil bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari 2017-yil fevralda Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Qarshi filialini tashkil etishga ko‘rsatma berdi. Qisqa muddatda zamonaviy tipdagi filial barpo etildi. 120 o‘rinli shifoxonaga eng zamonaviy tibbiyot jihozlari olib kelindi. Reabilitatsiya va yurak ishemik kasalliklari, surunkali yurak yetishmovchiligi va aritmologiya, arterial-gipertenziya, rentgen-endovaskulyar jarrohlik, kardiolarrohlik, qabul-diagnostika kabi bo‘limlar, kunlik 100 qatnovga mo‘ljallangan poliklinika faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Muhimi, markaz qisqa vaqtda — 2018-yil oxirida to‘liq ishga tushirildi.

Prezidentimizning yana bir tashabbusiga ko‘ra, xorijda qonuniy faoliyat yuritayotgan yetakchi mutaxassislarni yurtimizga qaytarish borasida ham sa‘y-harakatlar boshlangan edi. Xususan, Rossiyada mehnat qilayotgan Adham Jalilov ham Toshkent shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga ishga taklif qilindi. Malakali jarroh markazning Qarshi filiali binosi qurilishi loyihasida ishtirok etib, takliflarini bildirgan edi. Hozir o‘z ishbu shifo maskanida kardiolarrohlik bo‘limi boshlig‘i bo‘lib xizmat qilaypti. Shu bilan birga, bemorlarda jarrohlik amaliyotini o‘tkazib, xastalar dardiga darmon bo‘lyapti.

— Moskvada sakkiz yil o‘qib, yetakchi mutaxassislar ustozligida sohani mukammal o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldim, — deydi

Adham Jalilov. — 2017-yilda Toshkent shahriga ishga taklif qilindim. Albatta, bu men uchun quvonchli voqea edi. Axir shuncha bilim va malakamni o‘z yurtimda qo‘llash imkoniyati paydo bo‘lgandi. Poytaxtda ishlash



jarayonida Qarshi shahrida filial barpo etilishi va yerdaham barcha imkoniyat yaratilishidan xabardor bo‘ldim. So‘ng Qarshida ishlayotgan mutaxassislarning malakasini Toshkentda oshirishga kirishdik. 2018-yil oxiriga kelib, meni ham shu yerda ishlashga taklif qilishdi. Jon deb rozi bo‘ldim. O‘sha yilning o‘zida ilk bor jarrohlik amaliyotini o‘tkazdim. Buning uchun barcha imkoniyat yaratilgan. Har yili 300-400 fuqaroda jarrohlik amaliyotini o‘tkazyapmiz. Bu, birinchi navbatda, aholi uchun katta imkoniyat bo‘ldi. Bemorlar endi ilgargidek chet elda ovora bo‘lib yurmaydi.



Ayni paytgacha Adham Jalilov 7000 dan ortiq kishining yurak sohasida jarrohlik operatsiyasini muvaffaqiyatli bajargan. Uning aortokoronar shuntlash, klapan almashtirish, qon tomir kasalliklarini jarrohlik yo‘li bilan davolashdagi mahorati doim e‘tirof etiladi. Bundan tashqari, yosh shifokor mamlakat miqyosida yurak-qon tomir kasalliklarini jarrohlik usulida zamonaviy standartlash amaliyotini tatbiq etgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda 30 foiz bemorda mini invaziv usuldagi operatsiyalarni bajarib kelmoqda. Hozir mazkur

filialda nafaqat viloyatdan, mamlakatimizning barcha hududlaridan, qo‘shni davlatlardan ham bemorlar kelib, dardiga shifo topmoqda.

— Ilgari ham o‘zimizning Dushanbe shahridagi markaziy shifoxonada yuragimni operatsiya qildirdandim. Bunga ancha yil bo‘ldi, — deydi tojikistonlik Bahodir Rahmonov. — Lekin keyinchalik yana bezovtalana boshladim. Ahvolim yomonlashdi. Tanishlarim shu shifoxonadagi sharoit haqida juda yaxshi fikrlarni aytdi. Kelib, tibbiy ko‘rikdan o‘tdim. Shifokorlar ahvolimni o‘rgandi. Yuragimning klapanini almashtirish kerak ekan. Avvaliga

qaysi qismida ekanimiz yoki qaysi qismiga kirmoqchiligimizni ko‘rsata oladi. Yana bir vazifasi kerakli nuqtani yuqori aniqlikda topib berishidir. Misol uchun, miyaning bir qismida o‘smadan biopsiya olib gistologiyaga topshirmoqchi bo‘lsak, robot o‘sha nuqtaga qancha chuqurlikka kirishimiz kerakligini ko‘rsatib beradi va yo‘naltiradi. Bosh yuzasida uch millimetrlilik kesmadan kirib, o‘smadan qism olishimiz mumkin. Oldingiday katta kesma, suyakni arralashga hojat qolmaydi. Minimal invaziv yo‘li bilan bemor miyasiga elektrodlar o‘rnatish mumkin. Parkinson, epilepsiya kasalliklarida DBS, epilepsiya kasalligida stereo-EEG (SEEG) elektrodllari o‘rnatiladi. Buning uchun robot yordamida xarita tuzib olamiz. Bu operatsiyaning muvaffaqiyatli o‘tishi va muolaja samaradorligini ta‘minlaydi.

Markazda robot yordamida bir oyda 15-20 bemorga yuqori texnologik yordam ko‘rsatiladi. Onkologik bemorlarda robot stereobiopsiyada keng qo‘llanilsa, parkinson va distoniyaga kasalligiga DBS elektrodllarini o‘rnatishda qo‘l kelmoqda. Yaqinda mahalliy mutaxassislar ishtirokida bosh miyada temir to‘planishi — PKAN (Pantothenate Kinase-Associated Neurodegeneration) pantotenat kinaza bilan bog‘liq neyrodegeneratsiya tashxisi qo‘yilgan bemorda jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi.

— PKAN bosh miyada temirning ortiqcha to‘planishi natijasida nerv hujayralari shikastlanishi bilan kechadigan irsiy, kam uchraydigan neyrodegenerativ kasallikdir, — deydi neyroxirurgiya bo‘limi mudiri Shohruh Ziyovaddinov. — Kasallik PANK2 genidagi o‘zgarish tufayli rivojlanadi va asab hujayralarida metabolik muvozanat buzilishi miyada temir to‘planishiga olib keladi. Miya temir ortiqcha to‘planganda asab hujayralari faoliyati izdan chiqadi, natijada harakatlar muvofiqshlavi buziladi, mushaklar tortilishi (distoniya), nutq sekinlashuvi, yurishda muammolar, ba‘zan ruhiy o‘zgarishlar yuz beradi.

Hozircha bu kasallikni to‘liq davolab bo‘lmaydi. Biroq zamonaviy tibbiy yondashuvlar, jumladan, robot yordamida chuqur miya stimulatsiyasi kabi neyroxirurgik usullar qo‘llanilishi tufayli bemorlarning hayot sifati yaxshilanmoqda.

Yurtimiz sog‘liqni saqlash sohasini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish, bu orqali aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yanada oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buni bugun kasalliklarni erta aniqlash, diagnostika va davolash ishlarida yangi imkoniyatlar ishga solinayotgani misolida ham ko‘rish mumkin. Jarrohlik amaliyotlarida robot texnologiyalar keng qo‘llanilayotgani ayrim murakkab kasalliklarni muvaffaqiyatli davolash orqali aholining hayot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

**Risolat MADIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

ancho ikkilandim, bir oz qo‘rqdim ham. Shukrki, barchasi yaxshi o‘tdi. Sog‘lig‘im ancha tiklandi. Buning uchun shifokorlarga rahmat.

Malakali shifokor Adham Jalilov tashabbusi bilan har yili ko‘plab bemorlar dardidan forig‘ bo‘lmoqda. Jumladan, 2021-yilda 250 dan ortiq kishida jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgan. Ularning 50 nafardan ziyodida mitral klapanini protezlash va labirint operatsiyalari bajarilgan. Respublika miqyosida 150 dan ortiq bemorda aortokoronar shuntlash, 40 ga yaqin odamda to‘liq arterial koronar shuntlash, 20 ga yaqin kishida koronar shuntlash amaliyoti “No tous” usulida bajarilgan. 50 ga yaqin bemorda yurak tug‘ma nuqsonini ishlab turgan yurakda bartaraf qilish amaliyoti birinchilardan bo‘lib Qashqadaryo viloyatida o‘tkazildi.

Yosh kardiolarrohning mehnati munosib baholandi. U 2020-yilda Prezidentimiz farmoni bilan II darajali “Salomatlik” ordeni bilan mukofotlandi. Tinib-tinchimagan Adham Jalilov 2023-yildan Surxondaryo viloyatida ham mini invaziv usulda jarrohlik amaliyotini bajarishni yo‘lga qo‘ydi. Hozirgacha viloyatdagi mingdan ziyod bemorda shu amaliyot o‘tkazildi. Bemorlarni yillab qiynab kelgan xastalik davolandi.

— Ilgari yurak-qon tomir kasalliklarining murakkab jarrohlik ishi birovta viloyatda bajarilmagan, — deydi Adham Jalilov. — Bugun shunday imkoniyat aksariyat viloyatlarda mavjud. Bu, albatta, Prezidentimizning “Inson qadri uchun” tamoyili asosida yuritayotgan siyosati samarasi. Tibbiyotdagi islohotlar tufayli soha xalqqa yaqinlashdi. Odamlarning uzog‘i yaqin, og‘iri yengil bo‘ldi. Bundan tashqari, shifokorlar uchun ham imkoniyatlar kengaydi. Shifoxonalarimiz kerakli tibbiy jihozlar bilan ta‘minlandi. Masalan, birgina shu yilning o‘zida 350 dan ortiq bemorning yuragida jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi. Hozir markazimiz Rossiya, Germaniya, Shvetsiya kabi davlatlarning yetakchi kardiolarrohlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Ular bilan doim onlayn maslahatlashamiz. Zarur hollarda tajriba almashamiz. Maqsadimiz — umid bilan kelgan har bir bemor, albatta, shifo topsin.

Yana bir gap. Qahramonimiz 2014-yilda Rossiyada tibbiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini muvaffaqiyatli yoqlagan edi. Yaqinda zamonaviy tibbiyotda dolzarb va murakkab yo‘nalish bo‘lgan o‘tkir koronar sindrom bilan bemorlarda xirurgik davolash masalalariga bag‘ishlangan doktrorlik dissertatsiyasini yoqladi. Soha vakillari ta‘kidlashicha, bugun ishlab turgan yurakda jarrohlik amaliyoti o‘tkazish salmog‘i Yevropada 20 foiz bo‘lsa, boshqa hududlarda 25-30 foizni tashkil etadi. Adham Jalilov esa joriy yilning o‘zida kamida ellik foiz bemorning aynan ishlab turgan yuragini operatsiya qilgan. E‘tiborlisi, shu paytga qadar hech kimda yomon asorat kuzatilmagan.

**Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**



“101” filmida 1941-yili Smolensk yaqinida asirga tushib, keyinchalik Niderlandiyaning Amersfort konslageriga jo‘natilgan 101 nafar o‘zbek yigitining fojiali qismati hikoya qilinadi. Bu yigitlar natsistlar rahbari Yozef Gebbelsning buyrug‘iga binoan nemis targ‘iboti uchun maxsus tanlab olinadi. Fashistlar ular orqali “sovet asirlari och va ojiz” degan tasavvurni yaratishni maqsad qiladi. Shu niyatda asirlar qasddan uzoq vaqt och qoldiriladi. So‘ng tasvirga olish ishlari boshlanib, ularning oldiga bir dona non irg‘itiladi. Biroq voqealar rivoji dushman kutganidek tus olmaydi. Ochlikdan sillasi qurigan yigitlar bir lahza jim qoladi, so‘ngra ulardan biri nonni ehtiyotkorlik bilan olib, teng bo‘laklarga bo‘ladi va har bir asirga o‘z ulushini uzatadi. Hech kim non talashmaydi, hech kim bironing haqiga ko‘z olaytirmaydi.

TAOM

yeyish bellashuvlari:

SOVRIN

SOG‘LIQDAN

USTUN EMAS

Ushbu filmda bir burda nonga qanoat qilgan qahramonlarimiz o‘z qadriyatini, sabr va shukrni hayotiy mezon deb bilgan millat qiyofasini namoyon etadi. Afsuski, so‘nggi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan ayrim holatlar bu azaliy qadriyatlarga zid kelmoqda. Ovqat yeyish musobaqalari, “kim ko‘p yeydi” qabilidagi bellashuvlar hamda pul tikib o‘tkaziladigan “xo‘randalar bahsi” kabi jarayonlar na qanoatga va na madaniyatimizga mosdir. Videolavhalarda kamida o‘n kishilik oshni to‘rt kishi paqqos tushirayotganiga ko‘zingiz tushadi. Bu holat endilikda boshqa taomlarga ham ko‘chgan: buyurtma somsadan tortib, tovoq-tovoq go‘shxo‘rlikkacha, hatto qurt va banan yeyish borasida bahslashayotganlarning videolari ko‘payib bormoqda. Eng xavotirli, atrofda bu jarayonni zavq bilan tomosha qilayotganlarning aksariyati yoshlardir. Bu kabi holatlar garchi shaxsiy tanlov sifatida oqlansa-da, tobora ommalashib borayotgani sababli jamiyatning ma’naviy muhitiga ta’sir etmay qolmaydi.

Birinchi navbatda, bunday bellashuvlar inson sog‘lig‘i uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Ovqatni me’yoridan ortiq iste’mol qilish nafaqat oshqozon va hazm tizimiga zarar yetkazadi,

Agar yetarli miqdorda taomlansak, tanimizga jabr qilmaymiz. Arastudan: “Sen nega sira kasal bo‘lmaysan, boshqalardan farqing nimada?” deb so‘raganlarida, u “Boshqalar yeyish uchun yashaydi, men esa yashash uchun yeyman”, deb javob bergan ekan.

balki uning uzoq muddatli asoratlari semizlik, qandli diabet, yurak-qon tomir kasalliklari kabi og‘ir xastaliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Demak, bu ko‘ngilochar ko‘rinishdagi shou-musobaqada g‘olib deb topilgan ishtirokchi aslida mag‘lubdir. Chunki qo‘lga kiritilayotgan arizasmas sovrin uning uchun eng katta boylik sanalmish salomatligi evaziga qozonilmoqda.

— Musobaqalashib ovqatlanish ko‘pincha stress, ruhiy bezovtalik yoki xavotir holati bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday paytda inson hissiyotlarga berilgan holda ortiqcha va tez-tez ovqat yeyishi mumkin, — deydi gastroenterolog Nodir G‘ozziyev. — Bu holat, ya’ni bo‘kib ovqatlanish inson organizmiga katta zarar yetkazadi. Taom me’yoridan ziyod miqdorda qabul qilinganda me’da devorlari sun‘iy ravishda cho‘ziladi. Natijada hazm jarayoni sekinlashadi, qorinda og‘irlik, dam bo‘lish va og‘riq kabi noxush alomatlar paydo bo‘ladi. Agar bu holat muntazam takrorlansa, vaqt o‘tishi bilan me’da shilliq qavati shikastlanib, gastrit, refluks, hatto me’da yarasi rivojlanishi mumkin. Bo‘kib yeyish oqibatida organizm keragidan ortiq kaloriya to‘playdi. Ushbu kaloriyalarning yog‘ ko‘rinishida jamlanib, semizlik, qandli diabet va yurak-qon tomir kasalliklariga olib keladi. Shuningdek, ortiqcha ovqatlanish qon bosimi oshishi, yurakda og‘riq va nafas qisilishi kabilarni ham keltirib chiqaradi.

Shu bois, ovqatlanish madaniyatiga rioya qilish, ehtiyojga yarasha va xotirjam holda taomlanish juda muhim. Ovqat yetarli miqdorda, tinch muhitda va shoshilmasdan yeyilganda



hazm tizimi sog‘lom ishlaydi, organizm ortiqcha yuklanishdan himoyalanaadi va umumiy sog‘liq barqaror saqlanadi.

Bundan tashqari, bu kabi ovqatlanish musobaqalarining insonga ijtimoiy va psixologik ta’siri ham jiddiy mavzudir. Bellashuvlarning shou tarzida tashkil etilishi va ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalishi, ayniqsa, yoshlar ongida noto‘g‘ri dunyoqarashni shakllantirishi mumkin. “Ko‘p yeyish” orqali e’tibor qozonish yoki moddiy mukofot olish g‘oyasi qadriyatlarga zid bo‘lib, jamiyatda me’vorsizlik va isrofgarchilikni targ‘ib qiladi. Shu bois, bunday shou-musobaqalarga nisbatan sog‘lom tafakkur va mas’uliyatli yondashuvni shakllantirish dolzarb ahamiyatga ega.

— Ovqat yeyish musobaqalari hozirgi kunda ommaviy madaniyatning ajralmas qismiga aylanmoqda, — deydi psixolog Nazokatxon Yo‘lchiyoyeva. — Ko‘plab yirik media maydonlar va internet platformalari bu turdagi musobaqalarni targ‘ib qilmoqda. Bellashuvlarning shou va ko‘rgazmali ko‘rinishda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalishi esa yoshlar ongida noto‘g‘ri ruhiy modellar shakllanishiga zamin yaratishi mumkin. Ishtirokchilarning sanoqli daqiqalarda yuqori kaloriyalı taomlarni iste’mol qilishi ko‘pincha “tezkorlik” va “jadallik” ramzi sifatida ko‘rsatiladi. Bu esa yoshlarda sog‘lom ovqatlanish tartibi buzilishiga, ortiqcha iste’mol va yot odatlar shakllanishiga olib kelishi hech gap emas. Ijtimoiy bosimning o‘rni ham sezilarli: “boshqalar kabi qilish kerak”, “undan nimam kam” qabilidagi fikrlar insonning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ilmiy nuqtayi nazaridan qaraganda, bunday musobaqalar organizmning tabiiy signallariga zid harakat qilish demakdir. Tabiiy to‘qlik va to‘yinganlik hissi sun‘iy ravishda buziladi. Bu nafaqat oshqozon-ichak tizimi, balki butun organizm uchun stress manbaiga aylanadi. Shu sababli bunday musobaqalardan voz kechish hamda parhezli, sifatlı ovqatlanishni asosiy qoidaga aylantirish maqsadga muvofiq. Bu nafaqat salomatlikni saqlaydi, balki ruhiy barqarorlikni ham ta’minlaydi.

Darhaqiqat, bugungi zamonda oziq-ovqat mo‘l-ko‘l va turfadir. Gazaklar va souslar esa geni modifikatsiya qilingan mahsulotlar hamda transyog‘lar yordamida yanada lazzatli qilib tayyorlangan. Gazli ichimliklar va tili shirin sharbatlar ishtahani oshishga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra, ba’zan bir o‘tirishda ikki-uch xil taomni, uning ustidan salatlar, meva sharbatlari

va shirinliklarni ham iste’mol qilishimiz mumkin. To‘ylarda esa bu holat yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi — taomlarning serob va rang-barangligi odamni ko‘proq yeyishga undaydi. Ammo shunday mo‘l-ko‘lchilik va turli-tuman yeguliklardan foydalanishda me’yorni saqlash juda muhim. Agar yetarli miqdorda taomlansak, tanimizga jabr qilmaymiz. Arastudan: “Sen nega sira kasal bo‘lmaysan, boshqalardan farqing nimada?” deb so‘raganlarida, u “Boshqalar yeyish uchun yashaydi, men esa yashash uchun yeyman”, deb javob bergan ekan.

Achinarlisi shundaki, hozirgi kunda yeyish uchun bahslashadigan, “mechakaylik” musobaqasi ishqibozlari soni keskin ortib bormoqda. Agar avvallari ishtirokchilar, asosan, yo‘l-yo‘lakay tasodifan qatnashgan bo‘lsa, hozir boshqa shaharlardan ham g‘olib bo‘lib, ijtimoiy tarmoq “yulduzi”ga aylanish orzusidagilar oshxonalarga oqib kelmoqda. Bu qatlam orasida ayollar va yosh bolalar ham kam emas.

Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan videolarda ko‘pincha oshxona egalari g‘olibni taqdirlash jarayonini tantanali tarzda tashkil etadi. Biroq ular bu bilan cheklanib qolmaydi — yangi, yanada “qudratli” ishtirokchilarni chorlash orqali raqobat muhitini kuchaytirishga harakat qiladi. Bunday chorlovlarda turli manzillar yoki yosh toifalariga murojaatlar qilinadi, hatto ba’zan kimningdir izzat-nafsigaga tegadigan iboralar ishlatiladi. Natijada bu holat shunchaki ovqat yeyish bellashuvidan ko‘ra, hayot-mamot kurashini eslatuvchi muhitni yuzaga keltiradi. Shu zayilda yangi nomzodlar o‘z “sha’ni”ni himoya qilish” yoki “zo‘rligini isbotlash” niyatida o‘sha oshxonaga yo‘l oladi.

Agar shu turdagi “mechakaylik” musobaqalari ommalashaversa va ularning g‘oliblari qahramon sifatida targ‘ib etilsa, tabiiyki, ularga taqdir qiluvchilar soni ham ortib boraveradi. Ammo o‘ylab ko‘raylik-chi: bu “championatlar” ortida nimalar yotibdi? Kim g‘olib — insonmi yoki nafs? Aslida, bunday musobaqalarda inson nafsining g‘alabasi namoyon bo‘ladi. Qatnashuvchi ovqatni emas, aksinch, ortiqcha ovqat uning sog‘lig‘ini, umrini “yeb qo‘yishi” mumkinligini anglashi kerak. Shuni unutmaylik: ovqatlanganda qomimiz emas, avvalo, ko‘nglimiz to‘lsin.

Shuhrat NORMURODOV,
jurnalist